

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOY KOMPETENSIYASI VA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHDA AUDIOVIZUAL O'QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

**Atabayeva Mavjuda Rustamovna
Rustamova Maftuna Anvarjon qizi**

UrDU akademik litseyi Geografiya fani o'qituvchilari

Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarning kirib kelishi o'zlashtirilayotgan bilim-ko'nikmalarni o'quvchi ongiga to'la yetib borishiga juda katta yordam beradi. Bugun audiovizual o'qitish vositalaridan o'quv jarayonida foydalanish dolzarb muammoga aylangan, chunki audiovizual ma'lumotlarni taqdim etishni amalga oshiradigan texnik vositalar soni ortib bormoqda. Bundan tashqari, ta'lim jarayoni globallashtirish, axborot texnologiyalarining integratsiyalashuvi sharoitida amalga oshirilmoqda. Yangi avlod standartiga ko'ra, o'quvchilar fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil ravishda o'zlashtirish, o'rganish qobiliyatini ta'minlaydigan universal o'quv faoliyatini egallashlari kerak. Shuning uchun ham audiovizual o'quv qurollari yangi avlod standarti shartlarini bajarishga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

Audiovizual o'qitish vositalari geografiya fanini o'qitishning asosiy maqsadlariga erishishda ijobiy natijalarni qayd qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi mumkin. Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy kompetentsiyaga alohida e'tibor berish kerak, chunki geografiyaga doir dars mashg'ulotlarida o'rganilayotgan mamlakatning tili, madaniyati, urf-odatlarini bilmasdan turib, kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish mumkin emas.

Umumta'lim maktablarining texnik jihozlanishini yaxshilash pedagoglar oldiga ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirish uchun geografiya darslarida AVSO dan foydalanishning yangi, samaraliroq usullarini izlash vazifasini qo'yadi.

Ko'p yillik izlanishlarga qaramay, pedagogika fanida audiovizual o'qitish vositalaridan foydalanish asosida o'quvchilarning ijtimoiy kompetentsiyasini shakllantirish muammosi yetarli darajada o'rganilmagan.

Geografiya fani o'qitishning audiovizual vositalaridan foydalangan holda ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirish chuqur izlanish va samarali usullarni tushunishni talab qiladi. Bundan asosiy maqsad- zamonaviy audiovizual o'quv qo'llanmalar yordamida ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishni nazariy asoslash, pedagogik shart-sharoitlarni va o'quvchilarning mazkur kompetentsiyani rivojlantirish darajalarini aniqlash va eksperimental tekshirishdan iborat.

Bu borada maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. Audiovizual o'quv qurollarining asosiy turlarini tavsiflash va ularning tasnifini, tavsifini ko'rib chiqish;

2. Blog texnologiyasi va video materiallarning didaktik imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

3. Geografiya darslarida videomateriallar va blogdan audiovizual o'quv qo'llanma sifatida foydalanish samaradorligini eksperimental sinovdan o'tkazish;

4. Tadqiqotlar natijalarni tahlil qilish.

Bu tizimning pedagogika sohasida ilmiy yangiligi shundan iboratki, o'quvchilarning ijtimoiy kompetentsiya darajasini oshirish maqsadida maktab geografiya ta'limida sinflar kesimida dars jarayonida blog texnologiyasini joriy etish va videomateriallar bilan ishlash bo'yicha ishlab chiqilgan metodikani nazariy asoslash va eksperimental tekshirishdan iboratdir.

Ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirish maqsadida audiyovizual vositalardan foydalanish natijasida geografiya darslarida biror ob'yekt haqida kengroq tasavvur hosil qilish orqali idrok etish, uni tahlil qilish va amaliy topshiriqlarni bajarish orqali qayta ishlashni o'rgatishda foydalanish mumkin, masalan 9-sinf Jaxon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursida "Jaxon mamlakatlarining boshqaruv shakli va tuzilishi" mavzusida mavzuga oid materiallarni o'zlashtirishda audivizual vositlar-videorolik va prezentatsiyalardan foydalanilsa dars samaradorligi yanada oshadi.

Ta'limda jarayonida audiovisual vositalardan foydalanishni samaradorligini aniqlash uchun esa maktab ta'limida eksperimental ish jarayonida quyidagi usullarni qo'llash mumkin: to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita kuzatish, test qilish, o'quvchilarni savol-javob qilish, empirik materialni tahlil qilish va sintez qilish, eksperimental ma'lumotlarni matematik qayta ishlash usullari orqali samarasini aniqlash mumkin.

ADABIYOT:

1 Aleshina O. G. Maxsus fanlarni o'qitishda Internet resurslaridan foydalanish. // Yosh olim. No 23, 2016. - S. 449-451.

2. Apatova N. V. Maktab ta'limida axborot texnologiyalari. - M.: Yurayt, 2014. - 284 b.

3. Bordovskiy G.A. Audiovizual o'quv qo'llanmalarining imkoniyatlarini rivojlantirish / Noskova T.N. - Pedagogika, 2009. - 70-74 b.

4. Voronin Yu.A. O'qitishning texnik va audiovizual vositalari: Darslik / Yu.A. Voronin. - Voronej: Voronej. Davlat pedagogika universiteti, 2001. - 135 b.